

Qo'shma ta'lim dasturiga birinchi kirish imtihoni o'tkazildi

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti va Jizzax politexnika instituti hamkorligida tashkil etilgan Mashinasozlik texnologiyasi qo'shma ta'lim dasturiga birinchi kirish test sinovlari o'tkazildi. 10 sentyabrga qadar ikkinchi kirish test sinovlari uchun xujjatlar qabul qilinadi. Alohida qayd etish joizki, ushbu qo'shma ta'lim dasturida tahsil oladigan talabalar o'qishni tamomlagach davlat na'munasidagi Jizzax politexnika instituti va Turin politexnika universiteti diplomiga ega bo'lishadi.



